

URUSHNING DASTLABKI DAVRIDA "BUXORO HAQIQATI" GAZETASIDA VATANPARVARLIK TARG'IBOTI

Annotatsiya. Ushbu maqola Ikkinchi jahon urushining dastlabki davrida "Buxoro haqiqati" gazetasining vatanparvarlik targ'ibotidagi rolini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda "Buxoro haqiqati" gazetasidan olingan birlamchi manbalar asosida aholi mitinglari, xotin-qizlarning mehnat faolligi, mudofaa fondiga qo'shilgan moddiy hissalar va vatanparvarlik shiorlari kabi mavzular yoritilgan. Maqolada Molotov-Ribbentrop pakti va uning SSSRning urushga tayyorgarligiga ta'siri ham qisqacha ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari gazetaning xalqni safarbar etishdagi muhim mafkuraviy rolini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Ikkinchi jahon urushi, "Buxoro haqiqati", vatanparvarlik, matbuot, mudofaa fondi, ayollar mehnati, front orti.

Аннотация. Данная статья посвящена изучению роли газеты «Бухарская правда» в патриотической пропаганде в начальный период Второй мировой войны. В исследовании на основе первичных источников из газеты «Бухарская правда» освещаются такие темы, как народные митинги, трудовая активность женщин, материальные взносы в фонд обороны и патриотические лозунги. В статье также кратко рассматриваются пакт Молотова–Риббентропа и его влияние на подготовку СССР к войне. Результаты исследования демонстрируют важную идеологическую роль газеты в мобилизации населения.

Ключевые слова: Вторая мировая война, «Бухарская правда», патриотизм, печать, фонд обороны, женский труд, тыл.

Abstract. This article examines the role of the newspaper "Bukhara Truth" in patriotic propaganda during the early period of the Second World War. Based on primary sources from the "Bukhara Truth" newspaper, the study covers such topics as public rallies, women's labor activity, material contributions to the defense fund, and patriotic slogans. The article also briefly reviews the Molotov–Ribbentrop Pact and its impact on the USSR's preparation for the war. The findings demonstrate the newspaper's significant ideological role in mobilizing the population.

Keywords: Second World War, "Bukhara Truth", patriotism, press, defense fund, women's labor, home front.

Kirish. Ikkinchi jahon urushi insoniyat tarixidagi eng dahshatli va fojiali davrlardan biri bo'lgan hisoblanadi. Bu urush faqatgina front chizig'ida katta yo'qatishlar va talofat keltirmasdan, front ortidagi aholi uchun ham katta sinov va mashaqqat keltirgan edi. Ayniqsa, matbuot bu davrda muhim axbarot tarqatuvchi va xalqni ruhlantiruvchi vosita sifatida namoyon bo'lgan. Buxoro matbuotida, ayniqsa, "Buxoro haqiqati" gazetasi urush yillarida xalqni birlashtiruvchi, ruhlantiruvchi va g'alabaga ishonchni mustahkamlovchi kuch sifatida muhim rol o'ynagan.

Ikkinch jahon urushi boshlangan vaqtda, aniqrog'i 1939-yil 2-sentabrdan boshlab Buxoro haqiqati gazetasi urush voqealiklarini chetdan kuzatib turgan holda shunchaki aholini xabardor qiluvchi vosita bo'lgan, toki urush harakatlari sobiq SSSR hududlariga siljimaguncha. Shu davrdan boshlab bu gazeta nafaqat kunlik urush tavsilotlari haqida viloyat aholisini xabardor qiladi, balki front hududida bo'layotgan urush harakatlari, sovet askarlarining jasorati, mehnatsevar xalqning fidokorona jasorati hamda xalqni birlik va matonatga tadbqiq etadigan vatanparvarlik ruhida yozilgan maqolalarni muntazam yoritib borgan. Misol uchun gazeta matnlarida "Bir zarbaga ikki zarba bilan javob beramiz", "Dushman yer bilan yakson bo'ladi",

“Sotsialistik vatanni jon-dil bilan mudofaa qilamiz” hamda “Dushmanni o‘z yerida majag‘lab tashlaymiz” sarlavhadagi g‘oyalar targ‘ib qilinib, aholining ruhiy kayfiyatini ko‘tarishga alohida ahamiyat qaratilgan edi.

Natija va muhokamalar. Ikkinchi jahon urushi boshlanmasidan ilgari 1939-yil 23-avgustda SSSR va Germaniya o‘rtasida Molotov-Ribbentrop pakti 10 yil muddatda urush qilmaslik to‘g‘risida shartnoma imzolandi. Shu sababli urush boshlanganda ham SSSR hukumati Germaniyaning unga hujum qilishi haqida hech qachon xavotirga tushmagan, ammo xalqaro doiralar bu ikki davlat o‘rtasidagi munosabatga boshqacha baho berishgan. “Angliyaning SSSRdagi elchisi Kripps janoblarining Londonga borishidan ilgari, ayniqsa u yetib borganidan keyin, Angliya va umuman chet el matbuotida “SSSR bilan Germaniya o‘rtasida urush yaqinlashib qolgani” haqida ovozlalar tarqala boshlandi. Bu ovozalarga ko‘ra:

- 1) Go‘yo, Germaniya SSSR oldiga territorial va iqtisodiy xarakterdagi da‘volarni qo‘ygan va hozir Germaniya va SSSR o‘rtasida yangi, yana ham yaqinroq bitim tuzish uchun ular o‘rtasida muzokaralar bo‘layotir;
- 2) Go‘yo, SSSR bu da‘volarni rad etgan, shu munosabat bilan Germaniya SSSRga hujum qilish maqsadida SSSR chegarasiga o‘z askarlarini to‘playotir.”[1]

Angliya singari boshqa davlatlarning SSSR va Germaniya o‘rtasidagi munosabatlarning keyingi bosqichiga nisbatan o‘z qarashlari haqiqatga aylanib borayotgan ekan. Ammo bu kabi ovozalarni SSSR hukumati tan olmay “... Moskvadagi mas‘ul doiralar bu fikrlarning juda yoyilib ketganini nazarga olib, har holda, bu mish-mishlar SSSR va Germaniyaga dushman bo‘lgan va urushning yana ham kengayishidan, avj olishidan manfaatdor bo‘lgan kuchlar tomonidan qo‘pol ravishda uyushtirilgan propaganda sifatida baholaydilar...”[1]

Shunga qaramay, SSSR hukumatining Germaniyaga nisbatan bu kabi ishonchi o‘zini oqlamaydi. SSSR ittifoqi Xalq Komissarlari Soveti Raisining o‘rinbosari va Tashqi Ishlar Komissari o‘rtoq V.M.Molotovning 1941-yil 22-iyunda radio orqali so‘zlagan nutqi ham gapimizga isbot bo‘la oladi, u shunday degan edi “Bugun, erta bilan soat 4 da german askarlari Sovet Ittifoqiga hech qanday da‘volar taqdim etmay, urush e‘lon qilmay, mamlakatimizga hujum qildilar, ko‘p joyda chegaralarimizni ataka qildilar va Jitomir, Kiyev Sivastopol, Kaunas shaharlarimizni o‘z aeroplanlaridan bombardimon qildilar, buning natijasida 200 dan ortiq kishi o‘ldirildi va yarador qilindi. Mamlakatimiz ustiga bo‘lgan ko‘z ko‘rmagan-quloq eshitmagan ana shu hujum madaniy xalqlar tarixida misli ko‘rilmagan xiyonatdir.”[2]

Germaniya hukumati SSSRga nisbatan urush harakatlarining boshlanishini: “Germaniyaning sharqidagi chegaralar yaqinida Qizil Armiya qismlarining to‘planishi munosabati bilan Germaniya hukumati SSSRga qarshi urush qilishga qaror berganini aytdi.”[2] kabi izohlar bilan o‘zini oqlab chiqdi.

Kutilmaganda boshlangan bu urush harakatlari O‘zbekiston SSR hududidagi barcha fuqorolarni - oddiy aholidan tortib to ishchi va xizmatchilargacha urushda qatnashishga ruhlantiradi. Toshkentdagi Ilich nomli zavod zavodning ishchilari, injiner-texnik xodimlar va xizmatchilar fashistlar Germaniyasining bunday harakatidan norozi bo‘lib, hattoki mitinglar ham tashkil qiladilar. Miting davomida ular “Ilich nomli zavod kollektivi bolsheviklar partiyasi va SSSR hukumati tevaragiga har qachongidan ham mahkam jipslashib, Qizil armiyaga, Dengiz, Havo Flotiga dushmanni tor-mor keltirishda har taraflama yordam beradi. Zavoddagi IIBO, PIBXO, Qizil yarim oy (yaradorlarga yordam ko‘rsatish, hamshiralik kurslarini tashkil etish, qon topshirish va sanitariya ishlarini qilgan) va Osoaviaxim (mudofaa, aviatsiya va kimyo qurulishiga ko‘maklashuvchi jamiyat) tashkilotlarining ishlarida aktiv qatnashib, mudofaa quvvatimizni oshiramiz va shu bilan Ilich nomli zavodni mustahkam qo‘rg‘onga aylantiramiz”[3] kabi vatanparvar chaqirig‘lar bilan chiqishgan.

“22-iyun, kechki soat 8 da, fashist Germaniyasining Sovet Soyuziga to‘satdan hujum hujum qilgani munosabati bilan shahar partiya komiteti binosi oldida Buxoro shahar mehnatkashlarining 3 ming kishilik mitinggi bo‘ldi. Mitingni shahar partiya komitetining sekretari o‘rtoq Lenskiy ochib, qisqacha nutqida qutirgan fashist diktaturasining tinch Sovet Soyuziga

48 qilgan hujumi va bu hujumga qarshi sovet hukumatining g'alabador Qizil Armiyaga jangovor topshiriq berganini aytadi." [4]

Mitingda bundan tashqari, oblast harbiy komissariatidan o'rtoq Belchenko, shahar ijroiya komitetining raisi Ergashev, Buxoro intelligentlari nomidan Semyanov, ishchilardan Omonov va oblast partiya komitetining sekretari Bayburin o'rtoqlar ham so'zga chiqib xalqqa o'zlarining tinch va osoyishta hayotlari uchun fashistlarga qarshi kurashga ruhlantiradilar. "Miting esa "Yashasin sovet ittifoqining tinchlim siyosati", "Yashasin g'alabador Qizil armiyamiz!", " Yashasin g'alabaga ilhom beruvchi kommunistlar partiyasi va jonajon dohiyimiz o'rtoq Stalin!" degan xitoblar ostida yopildi." [4] Bu kabi xitoblar miting aholisida fashistlarga qarshi yetarlicha nafrat uyg'otganini anglatadi.

Buxoro oblastining ko'pgina hududlarida aholi mitinglar qilishni davom etdi. Bu bilan xalq o'zini Vatanni himoya qilishga tayyor ekanligi va urushda qatnashish ular uchun sharafligini ekanligini hukumron doiralarga namoyon qilishdan ham iborat bo'lgan. "22-iyun kech soat 8 da G'ijdivon shahar mehnatkashlarining 400 kishilik mitingi bo'lib o'tdi. Mitingni shahar ijroiya komitetining raisi O'rtoq Aslonov ochdi. Fashist Germaniyasining Sovet Ittifoqiga qarshi to'satdan qilgan hujumi haqida Suslov va Maqsudov o'rtoqlar axbarot berdilar.

Mitingda birinchi bo'lib so'zga chiqqan paxta tozalash zavodining ishchisi o'rtoq Ivanov shunday deydi: shavkatli Qizil Armiya va Harbiy Dengiz flotimiz oq Finlar bilan bo'lgan jangda g'alaba qozondi. O'zining qudratli, yengilmasligini butun dunyo oldida namoyish qildi. Fashist Germaniyasi ham qudratli Qizil Armiyamiz va Harbiy-Dengiz flotimizning qahshatqich zarbasiga uchrab o'z territoriyasida tor-mor keltirilajak." [5]

Mitinglardan ruhlangan aholi armiya uchun ham moddiy ham ma'naviy yordam berishni boshlab yubordi. Yakkabog' rayonining Sandal qishloq sovetidagi yuqori hosilli Qizil Yulduz kolxozining vatanparvar kolxozchilari Toshkent oblasti Yangiyo'l rayon Kaganovich nomli kolxoz a'zolarining qahramon Qizil Armiya jangchilari uchun issiq kimlarni to'plash haqidagi murojaatini baland ruh ko'tarinkiligi bilan qarshi olishadi. Yig'ilish qatnashchilari nomidan chiqqan Ergash Temirov rayon nomidan shunday degan edi: "Men mudofaa fondini tuzishda orqada qolmadim. Mamlakat mudofaa fondiga bir qo'y, 300 so'mlik zayom obligatsiya bergan edim. Endilikda Qizil Armiyaga bir paxtali fufayka va bryuk, qo'lqop, paypoq va bir quloqchin tayyorlab topshirdim. O'rtoq Ergash Temirov chaqirig'i bilan kolxoschilar katta himmat qildilar. Kolxos hisobchisi To'rayev bir sira ichki va ustki issiq kiyim tayyorlab topshirdi. U mudoofaa fondini barpo qilish paytida 395 so'm pul, bir qo'y, 300 so'mlik zayom obligatsiyasini bergan edi." [6]

Bundan tashqari, Yakkabog' rayonida bo'lgan ushbu yig'ilish davomida ayollar ham front uchun qo'ldan kelgancha yordam berayotganliklarini va undan keyin ham yordam berishga tayyor ekanliklarini ma'lum qilishgan edi. "...Ulardan biri terimchi Karimova: "Azamat jangchilarimiz uchun nima kerak bo'lsa, shuni beramiz",- dedi va qo'lidagi paxtali fufayka va paxtaki bryukni komissaga topshirdi. Shu yig'ilishni o'zidayoq 48 paxtali fufayka, 42 paxtali bryuk, 23 quloqchin, 69 ichki issiq kiyim, 39 ta qo'lqop va 32 paypoq tayyorlab qizil jangchilarga yuborishga vada qilindi." [6] Bu kabi xalqimizning fidokorona harakatlari ularning mamlakat taqdiriga befarq emasligini ko'rsatar edi.

Urush davomida yurtimiz erkaklari fashistlar bilan yelkama-yelka jang qilayotgan bir paytda, ayollarimiz esa fabrika va zavodlarda ish unumdorligini oshirish orqali dushman halokati uchun frontga qo'ldan kelgancha yordam berayotgan edilar. "Vatan urushining birinchi kunidayoq staxonovchi Bobomurodova ikki qozonda matal qilishga o'tib kunlik normani sistemali suratda ikki barobardan bajaradigan bo'ldi, u ishlab chiqaradigan mahsulotning sifatini bir muncha yaxshiladi. Shuningdek, Rasulova, Yoqubova, Rahmonova, Qandalotova, Nurova, Jabborova privazchilardan Shaybulina, Silkina, Sobirova o'rtoqlar ham o'z ishlab chiqarish normalarini ikki barobardan bajardilar. Seximiz kollektivi ishlab chiqarishdagi har bir g'alaba, plandan tashqari mamlakatga berilayotgan har bir gramm ipak – dushmanga zarba ekanini yaxshi tushunadi. Fabrikamizda tashkil qilinadigan havo hujumiga qarshi mudofaaga tayyorlanish to'garagiga har kuni ishdan keyin zavq bilan qatnashamiz. Seximiz kollektivi fabrikani dushman kirolmaydigan

mustahkam mudofaa qo'rg'oniga aylantirish uchun kecha-kunduz tinmay ishlamoqda. Chunki, Vatanimiz va o'rtoq Stalin hozir hammamizdan shuni talab qiladi"[7], - deydi M.Yahyoyeva Buxoro ipak fabrika matal sexining masteri.

Xotin-qizlarning mehnat unumdorligidagi tashabbuslari faqatgina fabrika va zavodlardagina cheklanib qolmasdan qishloq xo'jaligi, ayniqsa, g'o'za va g'alla yerishtirishdagi mehnat unumdorligini oshirish bo'yicha ham ancha tashabbus ko'rsatgan edilar. Bu kabi vatanparvarlik harakatlarini Kitob tumani ayollari ham o'zlarining amaliy ishlarida namoyon qildilar. "Paxtaobod qishloq sovetidagi Molotov nomli kolxozning yuzsentnerchi zveno boshlig'i o'rtoq Shoyimova zveno a'zolari orasida staxanovcha ishlashni keng rivojlantirdi. G'o'za chopig'i va kultivatsiya bo'yicha kundalik normalar 200 prosentga yetkazib bajarilmoqda. Natijada bu zveno g'o'zalari serhosil o'sib, har bittasida 60 tadan gul va ko'rak bo'g'lagan. "Qudratli vatanimizning mudofaasini mustahkamlash, shonli Qizil Armiyamiz ehtiyojlarini taminlash uchun bu yil paxta maydonimizning har bir gektaridan 100 sentnerdan hosil berish g'alabasini ta'minlaymiz",-deydi zveno boshlig'i Shoyimova."[8]

O'z Vatani cheksiz sevuvchi ayollarimiz yurtimizni dushmandan himoya qilish uchun erlari, aka-ukalari va otalari bilan yonma-yon turib fidokorona kurashdilar. Ularning kurashlari frontda jang qilishdan kam hisoblanmaydigan front ortidan turib g'alabaga yordam berishga kirishgan edilar. Eng e'tiborli jihati, uy-ro'zg'or ishidagi ayollar qishloq xo'jaligida g'o'za va g'alla unumdorligini oshirish, zavod va fabrikalarda erkaklardek ishlashdan tashqari endi ayollar uchun mos bo'lmagan traktorilik kurslariga borib, frontga ketgan erkaklarning o'rnini bo'sh qolmaligi uchun bor kuchlari bilan harakat qilishga intilgan edilar.

"Dehqonobod rayonida 120 ga yaqin kolxozchi qizlar traktorni o'rganish kursiga kirdilar va traktor ishini zo'r g'ayrat bilan o'rganmoqdalar. Shu kursda o'qiyotgan komsomolka o'rtoq Urolova o'z kursdoshlarini fikrini ifoda qilib shunday deydi: "Men sevimli traktorilik kasbimni egallashga kirishdim.. Kerak bo'lganda ulug' dohiy o'rtoq Stalinning birinchi chaqirig'i bilanoq fashizimga qarshi kurashga o'tlanib chiqishga tayyorman".[9] Bu kabi o'zbek ayollarining harakatlari ularning qanchalik vatanparvar, mehnatsevar va Vatani uchun hech qanday ishdan ham qaytmasligini ko'rsatar edi.

Ko'pgina ayollar qanchalik qiyin va mashaqqatli bo'lmasin erkaklar kasblarini katta shijoat bilan o'rganayotgan edilar. "Karmana temir yo'l stansiyasida strelkachi bo'lib ishlayotgan opa-singil komsomolka Gvazdevalar strelkani remont qilish ixtisosini ham yaxshi egalladilar. Kogon ganj zavodida xotin-qiz ishchilar staxanovcha ishlash bilan qo'shimcha kasblarni ham yaxshi egallamoqdalar. Komsomolka Zarina ilgari zatorshisa edi, hozir motovozchik kasbini egallab, namunali ishlamoqda."[9] Xalqimizning birdamlik irodasi bilan tuzilayotgan mudofaa fondiga ham vatanparvar ayollarimiz yuqoridagi singari fidokorona harakatlari orqali o'zlarining munosib hissalarini qo'shgan edilar.

Urush yillarida kolxozchi xalqimiz o'zlarining fidokorona mehnatlari bilan urush frontiga yordam berayotgan bo'lsalar, ishchi xalqimiz esa dushmanni tor-mor qilish uchun mudofaa fondiga o'z mablag'larini qo'shish orqali hissa qo'shayotgan edilar. "Buxoro shahar MTM ishchi-xizmatchilari mamlakat mudofaasiga yordam berishni katta ko'tarinki ruh bilan qarshi oldilar. Ular, yaqinda bir kunlik ish haqqilarini mamlakat mudofaasiga berish to'g'risida qaror qabul qilib, shu hisobdan 4925 so'm to'pladilar. Oblast suv xo'jalik irodasining xodimlari yovuz dushmanni tor-mor keltirish uchun mudofaa fondi tuzishni qizg'in ma'qullab, bir kunlik ish haqqilari hisobidan 1700 so'm ajratdilar."[10]

Front uchun tashkil etilayotgan moliyaviy vatanparvarlik yordamlarini oliy ta'lim xodimlari ancha qo'llab-quvvatlab, aholini bu kabi yordamlarga davat etib turayotgan edilar. "Buxoro davlat pedagogika institutining ilmiy xodimi o'rtoq Qizboyev mudofaa fondiga 400 so'm naqd pul berib butun kollektivni o'zidan o'rnak olishga chaqirdi. Institut direktori o'rtoq Davlat Yusupov 500 so'm, marksizm-leninizm kafedra mudiri o'rtoq Emilyanenko 400 so'm va o'qituvchi o'rtoq Karimov 400 so'm berib, o'rtoq Qizboyev taklifini quvvatladilar. Institut ilmiy xodimlari mudofaa fondiga bir kun ichida 5 ming 300 so'm naqd qul topshirdilar."[10]

Shunday qilib, shahar korxonalari va muassasalarida ishchi, xizmatchilarning mudofaa fondiga pul bilan yordam berishlari shunday davom etayotgan edi.

Xulosa. Ikkinchi jahon urushi yillarida "Buxoro haqiqati" gazetasi nafaqat oddiy axborot vositasi, balki xalqni ruhlantiruvchi, birlashtiruvchi va g'alabaga ishonchni mustahkamlovchi muhim mafkuraviy qurolga aylangan. Bu davrda tashkil etilgan mitinglar tasodifiy to'planish bo'lmay, xalqning dushmanga qarshi nafratini va Vatanni himoya qilish istagini to'liq ifodalagan. Buxoro shahridan tortib G'ijdivon va boshqa tumanlarigacha bo'lib o'tgan yig'ilishlarda ishchilar, ziyolilar va oddiy fuqarolar bir ovozdan frontga ko'mak berishga tayyor ekanliklarini e'lon qildilar.

Urush yillarida ayollarning roli alohida ahamiyat kasb etdi. Ular fabrika va zavodlarda ikki barobar mehnat normalarini ado etish bilan birga, qishloq xo'jaligida g'o'za va g'alla hosilini oshirish, hattoki traktorchi kabi erkaklar kasblari deb hisoblanib kelingan sohalarida ham fidokorona mehnat qildilar. Bu holat urush sharoiti xotin-qizlarning ijtimoiy rolini tubdan o'zgartirib, ularni front ortining asosiy tayanchiga aylantirganini ko'rsatadi.

Mudofaa fondiga qo'shilgan moddiy hissalar ham xalqning birligini yaqqol namoyon etdi. Oddiy kolxozchilardan tortib oliy ta'lim xodimlarigacha bo'lgan barcha qatlam vakillari o'z maoshlarining bir qismini, mol-mulkini va issiq kiyimlarini frontga topshirishda o'zaro musobaqa qildilar.

Shunday qilib, "Buxoro haqiqati" gazetasi urush yillarida jamiyatning barcha qatlamlarini — ishchilarni, dehqonlarni, ziyolilarni va xotin-qizlarni — yagona vatanparvarlik harakati atrofida birlashtiruvchi kuchli mafkuraviy markaz vazifasini muvaffaqiyatli ado etdi. Gazetaning tinimsiz targ'ibot faoliyati front ortidagi aholi ruhiyatini ko'tarib, g'alabaga bo'lgan ishonchni so'ndirilmadan saqlashda beqiyos hissa qo'shdi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Tass bildirilishi // Buxoro haqiqati, 1941-yil 15-iyun, № 140.
2. SSSR ittifoqi Xalq Komissarlari Soveti Raisining o'rinbosari va Tashqi Ishlar Xalq Komissari o'rtoq V.M.Molotovning 1941-yil 22-iyunda radio orqali so'zlagan nutqi // Buxoro haqiqati, 1941-yil 24-iyun, № 147.
3. Bir zarbaga ikki zarba bilan javob beramiz! // Buxoro haqiqati, 1941-yil 24-iyun, № 147.
4. Buxoro shahar mehnatkashlarining mitingi // Buxoro haqiqati, 1941-yil 24-iyun № 147.
5. Dushmanni o'z yerida tor-mor qilamiz // Buxoro haqiqati, 1941-yil 25-iyun iyun № 148.
6. Eng yaxshi issiq kiyimlar to'planmoqda // Buxoro haqiqati, 1941-yil 1-avgust № 180.
7. M.Yahyoyeva. Plandan oshiq har bir gramm ipak - dushmanga halokat // Buxoro haqiqati, 1941-yil 2-avgust № 181.
8. N.Xo'jamurodov. Xotin-qizlar tashabbusi // Buxoro haqiqati, 1941-yil 3-avgust № 182.
9. Sovet xotin-qizlarining otashin vatanparvarligi // Buxoro haqiqati, 1941-yil 6-avgust № 184.
10. Qudratli mudofaa fondini yaratamiz // Buxoro haqiqati, 1941-yil 6-avgust № 184.